



Issues of improving the spirituality of youth in the mahalla

Dilshodbek KOMILOV¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2023
Received in revised form
15 September 2023
Accepted 25 October 2023
Available online
15 December 2023

Keywords:

mahalla,
youth,
spirituality,
politics,
mass culture,
value.

ABSTRACT

The article reveals the importance of effectively solving the problems of raising the spirituality of youth in the mahalla with the help of scientific literature and articles in periodicals. Also, increasing the role of citizens' self-governance bodies in effectively solving issues related to the youth's spirituality, issues of citizens' meetings representing the interests of the youth were considered and analyzed.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp116-120>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mahallada yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalari

Kalit so'zlar:

mahalla,
yoshlar,
ma'naviyat,
siyosat,
ommaviy madaniyat,
qadriyat.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mahalladagi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish muammolarini samarali hal etish ahamiyati ilmiy adabiyotlar va davriy nashrlardagi maqolalar misolida ochib berilgan. Shuningdek, yoshlar ma'naviyatiga molik masalalarni samarali hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish, fuqarolar yig'inlarining yoshlar manfaatlarini ifodalovchi masalalari ham ko'rib chiqilib, tahlil qilingan.

Вопросы повышения духовности молодежи в махалле

Ключевые слова:

махалля,
молодежь,
духовность,
политика,
массовая культура,
ценности.

АННОТАЦИЯ

Статья подчеркивает значимость эффективного подхода к укреплению духовных ценностей среди молодежи в махалле через активное использование научных трудов и публикаций в периодических изданиях. Освещается также значимая роль органов местного самоуправления в решении проблем духовного развития молодежи, что иллюстрируется на примере анализа сходов граждан, где обсуждаются интересы и потребности молодых людей.

¹ Basic Doctoral Student, Department of History of Uzbekistan, Andijan State University.

Dunyo hamjamiyatida ma'naviy tahdidlarning xavfi kun sayin ortib borayotgan bir davrda mustaqil va sog'lom fikrlaydigan yoshlarni ajdodlarga yuksak hurmat ruhida tarbiyalash va ularga munosib bo'lishga intiladigan avlodni tarbiyalash respublikamizda davlat siyosati darajasiga olib chiqildi, bu jarayonda faol ishtirok etish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri XXI asr boshlarida butun yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, shuningdek, yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib berganini hech kim inkor etolmaydi. Bu boradagi fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet tizimlari turli davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga juda katta hissa qo'shayotganiga bugun barchamiz guvohi bo'lmoqdamiz. Yoshlarimizni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, ularda ma'naviy jasorat tuyg'usini shakllantirish turli mafkuraviy-ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning muhim omilidir. Hozirgi davrda global muammolarning bevosita davom etishi, ijtimoiy, iqtisodiy hayotda bo'lishning, ayniqsa, jamiyat hayotining yalpi axborotlashuvi tarkibiy qisimini informatsion madaniyatning inson faoliyatidagi o'rnini tashkil etadi. Axborot texnologiyalari fuqarolik jamiyatining barcha qirralarini egallab, jamiyat hayotini tobora zamonaviylashuvini, takomillashuvini ta'minlamoqda. Axborot texnologiyalari fundamental, ijtimoiy gumanitar fanlarning so'nggi yutuqlaridan unumli foydalangan holda, barcha fanlarning muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi [1].

Ommaviy madaniyat mazmunini zamonaviy sanoat ishlab chiqarilishi, kino-televideniye, kitoblar, gazetalar, jurnallar, sport, turizm va hokazolar tashkil etadi. U mahsulotlarni iste'mol qilish – ommaviy iste'moldir, chunki mazkur madaniyatni iste'mol qiladigan auditoriya – katta zallar, stadionlar, kinoekran, televideniye ishqibozlaridan iborat bo'lgan ommaviy auditoriyadir. Bugungi kunda ko'pchilik yoshlar odobni, kiyinish, muomala madaniyatini asosan ommaviy madaniyat orqali o'zlashtirmoqda.

Dunyodagi har bir xalqning o'ziga xos an'analari, urf-odatlar milliy qadriyatlari mavjud. Muayyan zaminda kurtak ochib, necha yuz yillar davomida shakllangan va sayqal topgan ma'naviy mezonlar shu millatning, shu xalqning bebaho boyligi hisoblanadi. Hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan texnika va texnologiya, globallashuv jarayonlarida bunday boylikning mohiyatini yanada chuqurroq anglash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugun keskin tus olayotgan "ommaviy madaniyat" ham ma'naviy tahdidlardan biridir.

Zamonaviylik, tezkor taraqqiyot bilan hamqadam bo'lish yoshlarimizning hayot tarziga aylanib bormoqda. Albatta, bu quvonarli hol. Chunki bir nechta tilda bemalol so'zlasha olish, internet olamiga kirib dunyo yangiliklaridan boxabar bo'lish imkoniyatining mavjudligi ularning bilimi, dunyoqarashi kengayotganidan darak beradi. Biroq globallashuv jarayonlarida turli g'oyalar kurashi, axborot xurujlari, mafkuraviy tazyiqlar tobora avj olayotgani sir emas. Bugun arzimasek ko'ringan kichik xabar ham ham odamlarning, ayniqsa yoshlarning hayotini o'zgartirishga qodir kuch bo'lishi mumkin.

Ayni paytda dunyoda demokratiya va erkinlik, oshkoralikning "yagona standart"ini zo'r berib targ'ib qilayotgan buzg'unchi kuchlar insonlar ongiga ta'sir ko'rsatishning turli yo'llaridan foydalanishga harakat qilmoqda. Ana shu yo'lda juda muhim vazifani – inson ma'naviyatini yo'qotish orqali uni bo'ysundirishga xizmat qiladi. Ularning fikricha, har bir millat, mamlakatning milliy madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlari "eskilik sarqiti" bo'lib, ular "ko'z-ko'z" qilayotgan "madaniyat" esa inson huquqlarini cheklamaydigan, har kim erkinligidan bemalol foydalanishga asoslangan deb targ'ib qilinmoqda.

Muhtaram yurtboshimiz 2017-yil 27-iyun kuni “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida soʻzlagan nutqida **“Tarbiya qancha mukammal boʻlsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”**, deb taʼkidlaganlar. Tarbiya mukammal boʻlishi uchun esa bu masalada boʻshliq paydo boʻlishiga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda.

Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan eʼtiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa koʻplab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi [2]. Maʼnaviy jasorat moddiy yoki maʼnaviy manfaatdorlik evaziga amalga oshirilmaydi, balki u insonning, jumladan yoshlarimizning oʻz hayotini, maqsad va orzu-umidlarini xalq va jamiyat uchun bagʻishlab amalga oshirgan ezgu faoliyatini ham ifodalaydi. Maʼnaviy jasorat ayrim shaxslar va alohida kishilarning salohiyatigina emas, balki har bir inson, jumladan yoshlarimiz uchun ham imkoni boʻlgan maʼnaviy fazilatdir.

Oʻzbekistonda qadimdan shakllangan turli madaniyat va tamaddun (sivilizatsiya)lar yonma-yon yashab kelgan, bu esa mahallalardagi bagʻrikenglik, tinchlikparvarlik, insonparvarlik saxovat va mehr oqibatlilik fazilatlarini bilan yanada ajralib turadigan oʻzbek xalqining oʻziga xos boʻlgan mentaliteti shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hol mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatga mansub xalqlarning oʻziga xosligi, shuningdek, betakrorligini saqlash hamda tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, sanʼat va xalq ijodiyoti, anʼana va urf-odatlarining yaqinlashuvi, bir-birini boyitishga hamjihatlik, oʻzaro hurmat muhitini shakllantirishga va imkoniyatlar eshigini ochilishiga asos boʻldi.

Axborot televideniye va internet yordamida gʻarb “universal” madaniyatining dunyo boʻyicha tarqatilishi yanada barcha mamlakatlar uchun katta xavf tugʻdirmoqda. Bunday tahdid shu qadar kuchliki, hatto u turli dasturlash yoʻllari orqali elat, millat va xalqlar ongiga singdirilmoqda. Oqibatda “madaniy tajovuzkorlik” va inson huquqlari ekspansiyasi tushunchalari ham paydo boʻldi. Demak axborotni qabul qilish madaniyatini shakllantirish-dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi vaqtda koʻz oʻngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur oʻzgarishlar roʻy berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, gʻoyaga, qarshi gʻoya, jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashish har qachongidan koʻra muhim ahamiyat kasb etmoqda[3].

Buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriyning “Odob durdonalari” (Al-Adab al-mufrad) kitobida keltirilgan muborak hadisi sharifida “Hech bir ota oʻz farzandiga xulqu-odobdan buyukroq meros bera olmaydi”, deyiladi. Oʻzbekistonni taraqqiy topishi uchun eng muhim vazifalarimizdan biri bu oilaviy tarbiyadir.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zoʻravonlik gʻoyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi koʻp tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan, Oʻzbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishini taklif etadi [4].

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar tahsinga sazovordir. Yoshlarni madaniyatli, ma'naviyatli, ma'rifatli etib tarbiyalashda davlatimiz tomonidan yoshlarga siyosat darajasida qaralayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar o'z natijasini berib kelmoqda, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik hamda sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hamмамиз ko'rib, kuzatib turibmiz – bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi ufq va imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor etmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og'ir kulfatlar olib kelmoqda, g'arazli kuchlar hali ong-u tafakkuri to'la shakllanib ulgurmagani bolalarni o'z ota-onasi, Vataniga qarshi qo'yib, ularning hayotiga zomin bo'lmoqda. Shuning uchun biz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirib, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganidek, “bu dunyo haqiqatan ham kurash maydoniga, sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq esa bu kurashning quroliga aylanib borayotganini chuqur anglab, shu borada jaholatga qarshi ma'rifat asosida ish olib borishimiz zarur” [5]. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligi asosida yoshlar hayotiga aloqador bo'lgan jami 50 ta qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, turli sohalaridagi yangilanishlar samarasi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlarni butun dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etib kelinmoqda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro darajadagi reytingi yangi bosqichga ko'tarilib, bu o'zgarishlar bir qancha siyosiy liderlar tomonidan davlatimiz bilan diplomatik jarayonlarini qayta ko'rib chiqishiga asos bo'lmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda aholi umumiy sonining 60 % dan ortig'ini yoshlar tashkil etadi.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonunning 9-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tizimiga ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, davlat soliqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, madaniyat va sport ishlari bo'yicha organlar, mehnat organlari, prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, adliya organlari, mudofaa ishlari bo'yicha organlar kirishi bilan bir qatorda, bu borada boshqa organlar va muassasalar ham qonun hujjatlariga muvofiq ishtirok etishi mumkinligi belgilab berilgan [6].

Yurtboshimiz tomonidan yoshlar ma'naviyatini va madaniyatini yuksaltirishda, ularning g'oyaviy dunyoqarashini rivojlantirish maqsadida besh tashabbus ilgari surildi. Bugungi kunda tashabbus doirasida barcha yoshlarni bir maqsadlari atrofida jipslashtirib, aniq maqsadlarga undab kelinmoqda, shuningdek har qanday tahdidlar va xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida besh tashabbus asosida yoshlarni musiqa, va san'at sohalarida, sport sohalarida jismoniy chiniqtirish, yoshlar o'rtasida komputer texnologiyalarida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini hal etish mumkin, degan g'oya qat'iyat bilan yoshlarimizning ongi shuuriga singdirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarimizning kelajakda yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lishiga zamin yaratmoqda. Yusuf Xos Hojib o'zining “Qutadg'u bilig”

asarida o'quv-idrok, bilim haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi. "Uquv-idrok qorong'i tundagi mash'alga o'xshaydi. Bilim esa o'sha mash'aldan taralayotgan nurga qiyos. U kishini yoritadi, unga ro'shnolik beradi.

Bunga ishonmasang, shubha qilsang ko'zingni katta och! O'zingni zakovat nuri bilan yoritib ko'r. Donishmandlarning bitta hikmatli so'zi yaxshi ma'lum: bilimdon o'z bilimlari tufayli balo-ofatlardan omon qoladi. Telba, nodon o'lsa, ajablanmaslik kerak: aslida ularning tiriklik chog'ida ham o'limdan farqi qolmaydi. Uquvsiz kishining ishi yurishmaydi.

Hurmat kishining o'quv-idrokidan keladi-yu o'quv-idroksiz kishi bir hovuch kepak bilan teng. Bularning barini kuzat, qara, bil! Shunda o'quv-idrokli dono kishilarning tub-asli senga ma'lum bo'ladi. O'quv-idrok kishini pokiza qiladi. Bilim esa yuksaltiradi. Inson zaminda paydo bo'lgan ekan, boshqa mavjudotlardan o'z bilimi bilan farqlanadi. Dunyodagi turli-tuman san'at, hamda son-sanoqsiz hunarlar uquv va bilimga tayangani uchun maqtaladi, tillardan tillarga ko'chib yuradi. O'quv-idrokdan ozgina ulush olgan kishi ham talay naf ko'radi [7].

Yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda milliy ma'naviy immunitetni shakllantirishda uning yuksalishiga erishish yo'llari ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar, nodir qo'lyozmalar yoshlarning ma'naviy ehtiyojini asrlar davomida milliy ma'naviy boyliklarimiz asosida qondirishimiz, ularni turli yot g'oyalardan asrashimizda Shayx Olouddin Mansur "Qur'oni karim", Alixonto'ra Sog'unliy "Tarixi Muhammadiy", Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy", Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri", Shayx Muhammad Sodik Muxammad Yusuf "Baxtiyor oila", Toxir Malik "Odamiylik mulki", Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" va shu kabi asarlar orqali yoshlarimizni tarbiyalashda muhim manba sifatida foydalanib kelmoqdamiz. O'zbekistonimizni rivojlantirish yoshlarning qo'lida ekanligini kelajagimiz ham bugungi yoshlarni ertangi hayotimizni belgilovchi kuch sifatida qaramog'imiz muhim, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.A. Abdumalikov, Fuqarolik jamiyatida shaxs informatsion madaniyatini shakllantirish. – Toshkent: O'zR "FA" nashriyoti, 2016.
2. Sh.Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.
3. I.A. Karimov, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
4. Z.Sh. Hamidov, N.Z. Hamidov, Axborot madaniyati muammo sifatida // Ilmiy xabarnoma. – Andijon, 2019. №2.
5. Sh. Mirziyoyev, Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 tomyu-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.
6. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha. Ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2017.
7. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" – Toshkent: "Yulduzcha", 1990.